

MAKTABGACHA TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI.

Kallibekova Rahima Mambetmuratovna

Eleonora Baxytovna Narymbetova

¹ 30-milliy tibbiyot bilim yurti psixologi

² 30-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575551>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sohasida didaktik mashg'ulotlarning psixologik mohiyatini oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning kommunikativlik jihatdan ahamiyati haqida bo'lib, turli nazariy qarashlar yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: Boshlang'ich ta'lim, didaktik mashg'ulot, psixologik tasvir, dunyoqarash, shaxsiy rivojlanish.

Maktabgacha ta'lim sohasining ilmiy-texnik nazariyasini shakllantirishda turli ijtimoiy dasturlarga muvofiq ta'limiy, tariyaviy maqsadlarga muvofiq keluvchi mashg'ulotlarning ahamiyati katta. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalariga muvofiq keluvchi dasturlar bilan birga o'quv mashg'ulotlarning konsentratsiyalashgan tamoyillarga aloqadorligini saqlagan holda tashkil etilishida maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining o'rni katta. Bog'cha yoshdagi bolalarning psixologik kayfiyatidan kelib chiqqan holatda mashlulotlar va o'yinlarning tashkillashtirilishida o'zgaruvchan tartibda o'yinlarning tanlanishi ham ahamiyatlidir.

Bog'chalaarda amaliy mashlog'ulot sifatida didaktik o'yinlarning tashkil etilishida psixologik hamda yo'naltiruvchi mashqlarning davomiyligini ta'minlashda yoshga mutanosib o'yinlarnig tadqiqi muhimdir. Bunda bolcha tarkibida bitiruvchi guruh tarkibida tarbiyalanuvchi farzandlarning proporsional ravishda o'yinlar asosida mashg'ulotlarni o'tashi keng amaliyotga mutanosibdir. "Haqiqatdan ham didaktik o'yinlarning ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan ravishda yuznaga kelishi ham bu sohaning ilmiy-texnik jihatdan shakllanishiga olib keladi"¹. Jumladan: yosh doirasiga muvofiq o'yinlarning yosh fiziologiyasiga muvofiqligini hisobga olish kerak. Bunda ranglarni ajratish, sonlarni o'rganish, tarbiya darslarining ahamiyati bolalarning psixologik tasvir uslubi o'laroq ta'sir darajasining konseptualligini yuzaga keltiradi. Didaktik o'yinlarning ahamiyatlilik darajasiga muvofiq tarzda maktabgacha ta'lim tizimida unumli faoliyat ko'rsatib kelyotgan xodimlarning ta'kidlashlaricha bolcha bolalarida maqola, matal, topishmoq va tez aytish kabilarning didaktik jihatdan o'rgatilishiga katta e'tibor

¹ Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.

qaratilishi zarur. Buning sababi bog'cha bolalarida topishmoq aytish va topishmoq javoblarini tipishga qiziqish hissi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Tez aytish mashqlarining muntazam ravishda takrorlanishi esa bolalar nutqida rivojlanishning o'sishiga, kommunikativ tarzda muloqotning yaxshilanishiga olib keladi. "Ta'lim turlaridan boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishda kundalik turmush tarzimizda ko'p kuzatadigan holatlardan o'yin va mashg'ulotlarning munosibligini ta'minlash bilan birga yosh darajasi va o'rganish qobiliyatlariga munosiblikni ta'minlashda belgilangan meyorlarga muvofiq kelishi lozim"². Bunda belgilangan talab va qonuniyatlarning amaliy ifodasiga muvofiqlik bo'lishi albatta muhim. Bog'cha bolalarining fundamental bilimlarini dhakllantirish davomiyligida sodda, ravon hamda aniqlikka tayaniluvchi mashqlarni bajarish lozim. "Misol uchun: Guruhda umumiy tarzda ko'ngil ko'tativchi hamda quvnoq o'yinlar, jismoniy mashqlarning umumiy tarzda bajarilishi bu yaxshi biroq namunaviy mashqlarning yoshi kichik tarbiyalanuvchilar va yoshi katta tarbiyalanuvchilarga mos kelmasligi mumkin, o'z navbatida bu esa jismoniy zo'riqishlarga olib keladi. Bu borada didaktik o'yinlarning ham yuqoridagi kabi ahamiyatligini unutmash zarur"³.

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilyotgan targ'ibotchilik ishlarining amaliy natijalarini sarhisob qilish yuza sidan quyidagi yutuqlarga erishildi:

- bolalarda shaxsiy rivojlanish;
- ijtimoiy tamoyillar bilan tanishish;
- psixologik tasvir mohiyatining o'sishi;
- kundalik turmush tarzimizda keng qo'llaniladigan normalar bilan tanishuv;
- sonlar kategoriyalari bilan mukammal tanishish;
- rang-tasvir ajratish xususiyatlari;
- nutqiy vositalarning amaliy ifodasi;
- Jismoniy madaniyat prinsplarini amaliy qo'llash.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktab ta'limini rivojlantirish hamda bolalar psixologiyasiga muvofiq keluvchi ta'lim dasturlarining amalda qo'llanilishi didaktik ta'limiy islohotlarning ahamiyatini oshiradi. Shuning uchun

² Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y

³ Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.

ham bog'cha bolalari bilan ishlashish davomiyligida ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda didaktik o'yinlarning ahamiyatlilik darajasiga e'tibor qilish zarur.

References:

1. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y.
2. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
3. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta'lim nazariyasi). O.O'Yu uchun qo'llanma.T., Sharq, 2006y.